



INVESTITSIYA LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR VA ULARNING IQTISODIY MAZMUNI

Mirzayev Shoxrux

*"Loyihalar va xaridlar samaradorligini
oshirish markazi" davlat muassasasi*

ORCID: 0009-0009-3491-2634

shoxrux.mirzaev.86@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha nazariy yondashuvlar va ularning iqtisodiy mazmuni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy usullari, moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, risklarni boshqarish mexanizmlari hamda loyihalarni moliyalashtirishning institutsional jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, investitsiya loyihalari samaradorligini oshirishda ESG tamoyillari, innovatsion texnologiyalar va strategik boshqaruvning o'rnini ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalari, iqtisodiy samaradorlik, NPV, IRR, diskontlash, investitsiya risklari, ESG, loyiha boshqaruvi, moliyalashtirish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ И ИХ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ

Мирзаев Шохрух

*Государственное учреждение «Центр
повышения эффективности проектов и закупок»*

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ теоретических подходов к обеспечению эффективности инвестиционных проектов и их экономического содержания. В исследовании изучены современные методы оценки инвестиционных проектов, показатели финансовой и экономической эффективности, механизмы управления рисками и институциональные аспекты финансирования проектов. Также на научной основе освещена роль принципов ESG, инновационных технологий и стратегического управления в повышении эффективности инвестиционных проектов.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, экономическая эффективность, NPV, IRR, дисконтирование, инвестиционные риски, ESG, управление проектами, финансирование.

THEORETICAL APPROACHES TO ENSURING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT PROJECTS AND THEIR ECONOMIC CONTENT

Mirzayev Shoxrux

*State Institution "Center for Improving
the Efficiency of Projects and Procurement"*

Abstract. This article comprehensively analyzes theoretical approaches to ensuring the efficiency of investment projects and their economic content. The study examines modern methods for evaluating investment projects, indicators of financial and economic efficiency, risk management mechanisms, and institutional aspects of project financing. In addition, the role of ESG principles, innovative technologies, and strategic management approaches in improving project performance is scientifically substantiated.

Keywords: investment projects, economic efficiency, NPV, IRR, discounting, risks, ESG, project management.

Kirish.

Bugungi kunda globallashuv, iqtisodiy integratsiya va xalqaro kapital harakatining jadallashuvi sharoitida investitsiya loyihalari mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish investitsiya loyihalari orqali amalga oshiriladi. Shu bois investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar, balki butun milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o'sishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, ularning iqtisodiy jihatdan puxta asoslanganligi, risklarning to'g'ri baholanishi hamda samarali moliyalashtirish mexanizmlarining shakllantirilganligiga bog'liq. Aksincha, investitsiya loyihalarini tayyorlash va baholashda yo'l qo'yilgan xatolar loyiha qiymatining asossiz oshishiga, amalga oshirish muddatlarining uzayishiga, qo'shimcha moliyaviy xarajatlarning yuzaga kelishiga hamda kutilgan iqtisodiy samaraga erishilmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish bugungi kunda iqtisodiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda investitsiya loyihalarini baholash metodologiyasi sezilarli darajada rivojlanib, an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar (NPV, IRR, PI, DPP) bilan bir qatorda risklarni boshqarish, institutsional muhit, ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash, shuningdek ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarini qo'llash kabi zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa investitsiya loyihalarining samaradorligini faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ularning uzoq muddatli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligi nuqtai nazaridan ham baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham investitsiya faoliyatini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan takomillashtirilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida sanoatni chuqur modernizatsiya qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini to'g'ri baholash, moliyalashtirish manbalarini oqilona shakllantirish va samarali loyiha boshqaruvi tizimini joriy etishga bog'liq.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati alohida moliyaviy ko'rsatkichlar yoki investitsiya risklarini baholash masalalariga bag'ishlangan. Biroq investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi moliyaviy, institutsional, boshqaruv va ESG omillarini yagona kompleks tizim sifatida tadqiq etish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda zamonaviy investitsiya siyosati sharoitida investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash masalalari iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida uzoq yillardan buyon dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etib

kelinmoqda. Investitsiya faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali qo'shimcha qiymat yaratish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashdan iborat. Shu bois investitsiya loyihalarini iqtisodiy jihatdan baholash va ularning samaradorligini aniqlash usullarini takomillashtirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari markazida bo'lib kelmoqda.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy mohiyati va ularni baholashning nazariy asoslari klassik investitsiya nazariyasida keng yoritilgan. Xususan, Keyns investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, kapital qo'yilmalarning milliy daromad va bandlikka ta'sirini ilmiy asoslab bergan. Keyns nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim instrument bo'lib, davlatning investitsiya siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. (Keyns, 1936)

Keyingi bosqichlarda investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash bo'yicha zamonaviy moliyaviy yondashuvlar shakllandi. Jumladan, Fabozzi investitsiya loyihalarini baholashda kapital bozori mexanizmlari, kapital qiymati va diskontlash usullarining o'rnini chuqur tahlil qilgan. Olimning fikricha, investitsiya qarorlarini qabul qilishda sof joriy qiymat (Net Present Value – NPV) hamda ichki rentabellik normasi (Internal Rate of Return – IRR) kabi ko'rsatkichlar eng ishonchli baholash vositalari hisoblanadi. Shu bilan birga, muallif loyiha samaradorligini aniqlashda pul oqimlarini vaqt omili nuqtai nazaridan baholash zarurligini alohida ta'kidlaydi (Fabozzi va Drake, 2021)

Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasi va kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM) investitsiya risklarini baholash metodologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Sharpe investitsiya loyihalarining samaradorligi faqat kutilayotgan daromad bilan emas, balki loyiha risklari bilan ham bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur yondashuv bugungi kunda investitsiya loyihalarining riskka moslashtirilgan samaradorligini baholashda keng qo'llanilmoqda.

Yirik infratuzilmaviy va sanoat loyihalarini moliyalashtirish masalalari E.R. Yescombe tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Olim davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership – PPP) mexanizmlarini tahlil qilib, uzoq muddatli investitsiya loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, risklarni ishtirokchilar o'rtasida oqilona taqsimlash hamda loyihaning moliyaviy barqarorligiga bog'liqligini ko'rsatgan. Mazkur yondashuv bugungi kunda ko'plab davlatlarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishning asosiy moliyalashtirish modeli sifatida qo'llanilmoqda. (Yescombe, 2018)

Loyiha boshqaruvi sohasida esa Project Management Institute (PMI) tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK Guide hamda PRINCE2 metodologiyalari alohida o'rin egallaydi. Ushbu standartlarda loyiha boshqaruvining tashabbus, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va yakunlash bosqichlari tizimli ravishda yoritilgan. Mazkur metodologiyalar loyiha muddatlari, xarajatlari va sifat ko'rsatkichlarini boshqarish hamda risklarni kamaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, yirik investitsiya loyihalarida loyiha boshqaruvining zamonaviy metodologiyalarini qo'llash iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi (Guide, 2021).

So'nggi yillarda investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha ilmiy qarashlar sezilarli darajada takomillashib, moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy samaradorlikni ham hisobga olish zarurati yuzaga keldi. Shu munosabat bilan OECD, Jahon banki, UNCTAD hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarining investitsiya loyihalarini baholashdagi o'rne keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv sifati investitsiya loyihalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ESG talablariga muvofiq amalga oshirilgan loyihalar xalqaro moliya institutlari va institusional investorlar uchun yuqori investitsiyaviy jozibadorlikka ega ekanligi qayd etiladi. (OECD, 2021)

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya siyosati, kapital qo'yilmalar samaradorligi, investitsiya muhiti va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish masalalari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda investitsiya jarayonlarini faollashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda investitsiya resurslaridan samarali foydalanish masalalari keng yoritilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida investitsiya loyihalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, loyiha boshqaruvi, institutsional muhit, risklarni kompleks baholash hamda ESG tamoyillarining investitsiya samaradorligiga ta'siri yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash bo'yicha ko'plab nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning zamonaviy iqtisodiy sharoitda o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilishi, ayniqsa moliyaviy, institutsional, boshqaruv va ESG omillarini yagona tizim sifatida baholash masalalari hali ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan investitsiya loyihalari samaradorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi mazkur omillarni yagona kompleks yondashuv asosida tizimlashtirish va ularning iqtisodiy mazmunini zamonaviy nazariy qarashlar nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy mazmunini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy fanlarda keng qo'llaniladigan umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot usullarining majmuasidan foydalanildi. Metodologik yondashuv investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning nazariy asoslarini, zamonaviy xalqaro amaliyotni hamda O'zbekiston sharoitidagi amaliy tajribani o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyiliga asoslandi.

Tadqiqotning nazariy asosini investitsiya nazariyasi, loyiha boshqaruvi, korporativ moliya hamda investitsiya risklarini boshqarish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OECD, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqalar) hisobotlari hamda ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tadqiqotning axborot bazasi sifatida foydalanildi.

Tadqiqot davomida, avvalo, tizimli yondashuv (system approach) usuli qo'llanildi. Ushbu usul investitsiya loyihalarining samaradorligiga ta'sir etuvchi moliyaviy, texnologik, institutsional, boshqaruv va ekologik omillarni yagona tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Mazkur yondashuv orqali investitsiya loyihalarining samaradorligi alohida ko'rsatkichlar emas, balki o'zaro bog'liq omillar majmui sifatida baholandi.

Qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli yordamida investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha turli nazariy yondashuvlar hamda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan metodologiyalar o'zaro solishtirildi. Xususan, Fabozzi, Yescombe, Sharpe hamda Project Management Institute tomonidan taklif etilgan yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, ularning investitsiya loyihalarini baholashdagi qo'llanish imkoniyatlari o'rganildi.

Ilmiy abstraksiya va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali investitsiya loyihalarining iqtisodiy mohiyati, samaradorlik tushunchasi hamda unga ta'sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tizimlashtirildi. Mazkur metodlar investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan diskontlangan pul oqimlari (Discounted Cash Flow — DCF) konsepsiyasiga asoslangan ko'rsatkichlardan foydalanildi. Jumladan:

- sof joriy qiymat (Net Present Value — NPV) investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini aniqlashning asosiy mezon sifatida ko'rib chiqildi;

- ichki rentabellik normasi (Internal Rate of Return — IRR) loyiha daromadlilikini baholash vositasi sifatida tahlil qilindi;

- rentabellik indeksi (Profitability Index — PI) investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun qo'llanildi;

- diskontlangan qoplash muddati (Discounted Payback Period — DPP) investitsiya xarajatlarining qoplanish tezligini baholashda foydalanildi.

Bundan tashqari, investitsiya loyihalarining zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini baholash maqsadida PMBOK (Project Management Body of Knowledge) va PRINCE2 (Projects IN Controlled Environments) metodologiyalarining asosiy tamoyillari tahlil qilindi. Mazkur metodologiyalar loyiha boshqaruvi bosqichlari, risklarni boshqarish, manfaatdor tomonlar bilan ishlash hamda loyiha monitoringini tashkil etish nuqtai nazaridan o'rganildi.

So'nggi yillarda investitsiya loyihalarini baholashda ekologik va ijtimoiy omillar tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olib, tadqiqotda ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillariga asoslangan yondashuv ham qo'llanildi. Mazkur yondashuv investitsiya loyihalarining uzoq muddatli barqarorligi, ekologik xavfsizligi, ijtimoiy mas'uliyati hamda korporativ boshqaruv sifati nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlash maqsadida olingan ilmiy xulosalar xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan o'zaro solishtirildi hamda mantiqiy umumlashtirish asosida yakuniy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining samaradorligi faqatgina moliyaviy natijalar bilan belgilanmaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda loyiha muvaffaqiyati moliyaviy, texnologik, institutsional, boshqaruv hamda ekologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Shu sababli investitsiya loyihalarini baholashda kompleks yondashuvni qo'llash iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarini baholashning an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlari, jumladan NPV, IRR, PI va DPP, investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilsa-da, ular loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni to'liq aks ettira olmaydi. Mazkur ko'rsatkichlar asosan loyihaning moliyaviy daromadlilikini baholaydi, biroq loyiha risklari, institutsional muhit, boshqaruv sifati hamda ekologik va ijtimoiy ta'sir kabi omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro ilmiy adabiyotlarda so'nggi yillarda investitsiya loyihalarini baholashda integratsiyalashgan (integrated assessment) yondashuvlar tobora keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuv moliyaviy ko'rsatkichlarni loyiha risklari, korporativ boshqaruv sifati, ekologik barqarorlik va ijtimoiy samaradorlik bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Natijada investitsiya loyahasining uzoq muddatli barqarorligi va investorlar uchun jozibadorligi yanada aniqlashga baholanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri moliyalashtirish manbalarining tarkibi va kapital qiymati hisoblanadi. Agar loyiha asosan yuqori foizli qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilsa, kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati (WACC) oshadi va bu sof joriy qiymatning pasayishiga olib keladi. Aksincha, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, jumladan aksiyadorlik kapitali, obligatsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish loyiha risklarini kamaytirish bilan bir qatorda moliyalashtirish xarajatlarini ham optimallashtirish imkonini beradi.

Moliyaviy omillar bilan bir qatorda texnologik omillar ham investitsiya loyihalari samaradorligining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy energiya tejamkor

texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mahsulotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sanoat va infratuzilma loyihalarida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish loyiha muddatlarini qisqartirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot davomida loyiha boshqaruvining investitsiya samaradorligiga ta'siri ham alohida o'rganildi. Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, PMBOK, PRINCE2 va Agile Project Management metodologiyalaridan foydalanayotgan loyihalarda muddatlarning buzilishi, xarajatlarning oshishi hamda loyiha risklarining yuzaga kelish ehtimoli sezilarli darajada past bo'ladi. Bu esa loyiha boshqaruvi sifati investitsiya samaradorligining muhim institutsional omili ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatiga tashqi iqtisodiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasi, milliy valyuta kursining o'zgarishi, foiz stavkalari dinamikasi hamda jahon bozoridagi narxlar kon'yunkturasi investitsiya loyihalarining moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan yoki import uskunalaridan keng foydalanadigan loyihalarda valyuta risklarini samarali boshqarish investitsiya samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalqaro investorlar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ESG tamoyillari alohida mezon sifatida qo'llanilmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv talablariga javob beruvchi loyihalar uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishda yuqori ustunlikka ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, ESG mezonlariga mos loyihalarda moliyalashtirish qiymati nisbatan past bo'lishi ham kuzatilmoqda. Bu holat ESG tamoyillarini investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish uchun, avvalo, investitsiya loyihalarini baholash metodologiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, korporativ obligatsiyalar bozorini faollashtirish, loyiha boshqaruvida zamonaviy metodologiyalarni joriy etish hamda ESG tamoyillarini investitsiya siyosatiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi faqatgina moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki institutsional muhit, loyiha boshqaruvi sifati, risklarni boshqarish tizimi, texnologik rivojlanish darajasi hamda ekologik va ijtimoiy omillar bilan ham bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida investitsiya loyihalarini baholashda qo'llanilayotgan mavjud nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlandi. Xususan, an'anaviy moliyaviy baholash usullari, jumladan NPV, IRR, PI va diskontlangan qoplash muddati investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim vosita bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, ular loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy, institutsional, boshqaruv, risk va ESG omillarini yagona tizim asosida baholovchi kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy loyiha boshqaruvi metodologiyalarini, xususan PMBOK, PRINCE2 va boshqa xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish loyiha

muddatlari va xarajatlarini samarali boshqarish, risklarni kamaytirish hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ESG tamoyillarini investitsiya loyihalarini rejalashtirish va baholash tizimiga integratsiya qilish ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda xalqaro investorlar ishonchini oshirish hamda uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- investitsiya loyihalarini baholash metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda institutsional, boshqaruv hamda ESG mezonlarini majburiy baholash tizimini joriy etish;

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kapital bozorini rivojlantirish hamda korporativ va infratuzilmaviy obligatsiyalar bozorini kengaytirish;

- davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali yirik investitsiya loyihalariga xususiy kapitalni kengroq jalb etish;

- loyiha boshqaruvi jarayonlarida PMBOK, PRINCE2 va boshqa zamonaviy metodologiyalarni joriy etish hamda loyiha ofislari (Project Management Office – PMO) faoliyatini rivojlantirish;

- investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va risklarni prognozlashning zamonaviy usullaridan foydalanishni kengaytirish;

- investitsiya loyihalarining ekologik va ijtimoiy samaradorligini baholash bo'yicha ESG indikatorlarini milliy baholash tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy nazariy yondashuvlarni amaliyotga keng tatbiq etish, loyiha boshqaruvini takomillashtirish, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro standartlar va ESG tamoyillarini joriy etish O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Адабиётлар /Литература/References:

AXELOS. (2023) *Managing Successful Projects with PRINCE2*. 7th Edition. London: TSO,

Bodie Z., Kane A., Marcus A.J. (2021) *Investments*. 12th Edition. McGraw-Hill.

Fabozzi F.J., Drake P.P. (2021) *The Basics of Finance: An Introduction to Financial Markets, Business Finance, and Portfolio Management*. Wiley,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2026) 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022) 25-iyuldagi PQ-332-son "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarining loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlarni kompleks ekspertizadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

OECD.(2021) *Sustainable Finance and ESG Investing*. – Paris, .

Project Management Institute.(2021) *A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide)*. 7th ed. PMI,

UNCTAD. (2024) *World Investment Report. Investment Facilitation and Sustainable Development*. Geneva, .

World Bank. (2022) *Investment Project Financing Framework*. – Washington DC,

Yescombe E.R. (2018) *Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance*. – Oxford